



**ANTON CHEXOVNING "GADOY" HIKOYASIDA OBRAZ XARAKTERINI
OCHISHDA SINONIMLARNING BADIY-ESTETIK VAZIFASI**

Ibragimova Nilufar

*Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti Filologiya fakulteti,
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 4-bosqich talabasi*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada rus adabiyotining yirik namoyandasi Anton Chexovning "Gadoy" hikoyasi lingvopoetik jihatdan tahlil qilinadi. Xususan, asarda sinonimlarning obrazlar xarakterini ochish, qahramonlarning ruhiy holatini ifodalash hamda voqealar rivojini ta'sirchan tasvirlashdagi badiiy-estetik vazifasi yoritiladi. Hikoyadagi sinonimik qatorlarning emotsional-ekspressiv imkoniyatlari misollar asosida tahlil qilinib, yozuvchining individual uslubi va so'z tanlash mahorati ochib beriladi.*

Kalit so'zlar: *Anton Chexov, "Gadoy", sinonim, lingvopoetika, obraz, xarakter, badiiy uslub, psixologizm.*

Jahon adabiyotida inson ruhiyati va xarakterini yuksak badiiy mahorat bilan tasvirlay olgan yozuvchilar orasida Anton Chexov alohida o'rin egallaydi. Uning hikoyalari hayotiyliigi, ixcham sujeti, chuqur psixologizmi hamda til vositalaridan mahorat bilan foydalanilgani bilan ajralib turadi. Ayniqsa, yozuvchi qahramonlarning ichki kechinmalarini ochishda sinonimlardan keng va maqsadli foydalanadi. Sinonimik birliklar nutqning ta'sirchanligini oshirish bilan birga obraz xarakterini bosqichma-bosqich yoritishga xizmat qiladi.

Mazkur maqolaning maqsadi Anton Chexovning **"Gadoy"** hikoyasida qo'llangan sinonimlarning obraz xarakterini yaratishdagi badiiy-estetik vazifasini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot davomida hikoyadagi sinonimik qatorlarning qahramonlarning ruhiy holatini ifodalash, voqealar dinamikasini kuchaytirish va yozuvchining individual uslubini namoyon etishdagi o'rni misollar asosida yoritiladi.

Anton Pavlovich Chexov (1860–1904) rus adabiyotining mashhur hikoyanavisi va dramaturgi hisoblanadi. U o'z ijodida oddiy insonlar hayoti, ularning ichki dunyosi hamda jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni sodda, ammo chuqur badiiy tasvir orqali yoritgan.⁵ Chexov asarlarining muhim xususiyatlaridan biri qahramon ruhiyatini so'z tanlovi va badiiy til vositalari yordamida tabiiy ifodalashidir. Shu jihatdan yozuvchining **"Gadoy"** hikoyasi ham lingvopoetik tahlil uchun muhim manbalardan biri hisoblanadi.

Anton Chexov ijodining muhim xususiyatlaridan biri obrazlarning ichki kechinmalarini til vositalari orqali tabiiy va ta'sirchan ifodalashidir. Yozuvchi qahramonlarning ruhiy holati,

⁵ Anton Chexov haqida. Tafakkur.net. (Elektron manba). Murojaat qilingan sana: **31.07.2026**





hissiy kechinmalari va xarakteridagi o'zgarishlarni tasvirlashda sinonimik birliklardan mahorat bilan foydalanadi. Bu holat **"Gadoy"** hikoyasida ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi.

Oybek Mo'minov "Sirli xilqat" hikoyalar to'plamiga yozgan so'zboshisida Chexov ijodining o'ziga xos jihatlaridan biri inson xarakterini chuqur ochib bera olish mahorati ekanini ta'kidlaydi. Darhaqiqat, "Gadoy" hikoyasida ham yozuvchi voqealarni tasvirlashdan ko'ra qahramonlarning ruhiy olamiga ko'proq e'tibor qaratadi. Mazkur maqsadni amalga oshirishda esa sinonimik qatorlar muhim badiiy vosita sifatida xizmat qiladi.

Hikoya boshida Lushkov o'zini qashshoq o'qituvchi sifatida tanishtirib, odamlarda rahm-shafqat uyg'otishga urinadi. Biroq sudya Skvorsov uning yolg'on gapirayotganini anglagach, voqealar rivoji keskin o'zgaradi. Aynan shu o'rinda yozuvchi sudyaning ruhiy holatini ifodalash uchun ketma-ket sinonimlardan foydalanadi. Jumladan, **"ko'rgandek bo'ldi"**, **"birdan yodiga tushdi"**, **"qizardi"**, **"g'azab bilan hayqirdi"**, **"itob qildi"**, **"tutaqib ketdi"**, **"urishdi"**, **"qichqirdi"**⁶ kabi birliklar qahramon hissiyotining bosqichma-bosqich kuchayib borishini ko'rsatadi. Bu sinonimlar oddiy takror emas, balki emotsional-ekspressiv darajaning izchil ortib borishini ifodalaydi. Natijada o'quvchi sudyaning yolg'onga nisbatan nafratini va adolat tuyg'usini yanada chuqurroq his qiladi.

Lushkovning ruhiy holati tasvirida ham shunga o'xshash sinonimik qatordan foydalanilgan. Muallif uning kechinmalarini **"g'udrandi"**, **"esankiradi"**, **"ming'irladi"**, **"oqlashga urindi"**, **"qasam ichdi"**, **"jim bo'lib qoldi"**, **"boshini xam qildi"** kabi fe'llar orqali tasvirlaydi. Mazkur sinonimlar qahramonning ruhiy holatidagi o'zgarishlarni bosqichma-bosqich ochib beradi. Dastlab u o'zini oqlashga harakat qilsa, keyinchalik aybini anglab, uyalish va pushaymonlik hissini boshdan kechiradi. Shu tariqa sinonimlar obraz xarakterining dinamik rivojlanishini ta'minlaydi.

Hikoyadagi yana bir muhim obraz — Olga obrazi hisoblanadi. Dastlab yozuvchi uni **"o'qrayib qaradi"**, **"zarda bilan eshikni ochdi"**, **"boltani irg'itdi"**, **"qahr bilan tupurdi"**, **"qarg'ay boshladi"** kabi ifodalar yordamida qo'pol va jahldor ayol sifatida tasvirlaydi. Biroq hikoya yakunida aynan Olga Lushkovning hayotini o'zgartirgan inson ekani ma'lum bo'ladi. Bu badiiy yechim tashqi qo'pollik bilan ichki mehr-shafqat o'rtasidagi ziddlikni ochib beradi. Natijada o'quvchining obraz haqidagi dastlabki tasavvuri o'zgaradi va yozuvchining psixologik tasvir mahorati yanada yaqqol namoyon bo'ladi.

Chexov sinonimlardan nafaqat qahramonlarning ruhiy holatini tasvirlashda, balki sujet dinamikasini kuchaytirishda ham samarali foydalangan. Har bir sinonimik qator voqealarning tabiiy rivojlanishini ta'minlab, badiiy matnning emotsional ta'sirchanligini oshiradi. Shu sababli hikoyada sinonimlar oddiy leksik birlik emas, balki obraz yaratishning muhim lingvopoetik vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

⁶Chexov, A. P. *Sirli xilqat* (hikoyalar to'plami). Tarjimon: Oybek Mo'minov. — Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018.





Demak, "Gadoy" hikoyasida sinonimlardan foydalanish obrazlarning xarakterini ochish, ularning ruhiy holatini bosqichma-bosqich tasvirlash hamda asarning badiiy-estetik qiymatini oshirishga xizmat qilgan. Bu esa Anton Chexovning so'z tanlashdagi nozik didi va individual uslubini yaqqol namoyish etadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Anton Chexovning **"Gadoy"** hikoyasida sinonimlardan foydalanish obrazlar xarakterini ochishning muhim lingvopoetik vositalaridan biri hisoblanadi. Yozuvchi sinonimik qatorlar yordamida qahramonlarning ruhiy kechinmalari, hissiy holati va xarakteridagi o'zgarishlarni izchil hamda tabiiy tarzda tasvirlay olgan. Ayniqsa, Skvorsov va Lushkov obrazlarining ichki kechinmalarini ifodalashda qo'llangan sinonimlar voqealar rivojini emotsional jihatdan kuchaytirib, badiiy matnning ta'sirchanligini oshirgan.

Hikoyadagi Olga obrazi esa tashqi qo'pollik va ichki mehr-shafqat uyg'unligini namoyon etuvchi muhim badiiy obraz sifatida gavdalanadi. Muallif ushbu obraz orqali insonni o'zgartirishda faqat tanbeh emas, balki samimiy mehr va rahm-shafqat ham muhim omil ekanligini badiiy jihatdan asoslaydi.

Shunday qilib, **"Gadoy"** hikoyasi misolida Anton Chexovning so'z tanlash mahorati, ayniqsa sinonimlardan o'rinni foydalanishi, obrazlarning psixologik tavsifini chuqurlashtirish, asarning badiiy-estetik qiymatini oshirish hamda yozuvchining individual uslubini namoyon etishda muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi. Mazkur tadqiqot natijalari badiiy matnlarning lingvopoetik xususiyatlarini o'rganishda hamda sinonimlarning uslubiy imkoniyatlarini tadqiq etishda amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Chexov, A. P. Sirli xilqat (hikoyalar). Tarjimon: Oybek Mo'minov. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018.
2. Hojiyev, A. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi.
3. Anton Chexov haqida. Tafakkur.net. (Elektron manba). Murojaat qilingan sana: **31.07.2026.**